# IQTISODIY RIVOJLANISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI

**Po'lotov Shoxrux Shavkatovich**
*Buxoro-muhandislik texnologiya instituti o'qituvchi-stajyori*
**Samiyeva Nafisa Shamsiddinovna**
*Buxoro viloyati Shofirkon tumani qishloq xo'jaligi mahsulotlari texnologiyasi texnikumi o'qituvchisi,* shoxrux_shavkatovich@mail.ru

# ЗНАЧЕНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ

**Пулотов Шохрух Шавкатович**
*Преподаватель-стажер Бухарского инженерно-технологического института,*
**Самиева Нафиса Шамсиддиновна**
*преподаватель техникума Технология производства сельскохозяйственной продукции Шофирконского района Бухарской области*

# THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN ECONOMIC DEVELOPMENT

**Pulotov Shokhrukh Shavkatovich**
*Trainee teacher at Bukhara Engineering and Technology Institute,*
**Samieva Nafisa Shamsiddinovna**
*teacher at the technical school Technology of agricultural production in Shofirkon district of Bukhara region*

Iqtisodiy rivojlanish har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyot muhim ahamiyat kasb etadi. [1]. Raqamli iqtisodiyot asli jarayonlarni tahlil qilish natijalaridan foydalanish va katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash asosida turli xildagi, texnologiyalar, asbob-uskunalar, tovar va xizmatlarni saqlash, sotish va yetkazib berish samaradorligini jiddiy ravishda oshirishga imkon beradigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat [2] bilan chambarchas bog'liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig'indisidir.



Ba‘zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Ilk bor marta 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte ―Raqamli iqtisodiyot terminini amaliyotga kiritgan bo’lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo’llamoqda. [3]

Zamonaviy taraqqiyotning keyingi istiqbolida katta hajmli ma‘lumotlar bilan ishlash texnologiyalari (Big Data) [4], sun‘iy intellekt, neyrotexnologiyalar, kvant texnologiyalari,buyumlar interneti, robototexnika va sensorika, raqamli elektron platformalar, bulutli va mobil texnologiyalar, virtual va qo’shimcha reallik texnologiyalari, kraudsorsing, blokcheyn texnologiyalari, kriptovalyutalar va ICO, 3D- texnologiyalari singari raqamli texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. [5]

Dunyo tajribasini o'rganish natijasida shu narsa aniq bo'ldiki, raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotda davlat (hukumat) bozor "o'yin" qoidalarini o'yinning barcha ishtirokchilari uchun belgilaydi va bunda davlatning eng muhim vazifasi sifatida o'yin ishtirokchilari uchun bir xil, teng huquqli va imkoniyatli sharoit yaratib berish hisoblanadi [6]. Ya'ni, bozorda katta kompaniya bo'ladimi yoki kichik biznes, ular teng huquqli hisoblanadi. Ularga bir xil imkoniyatlar beriladi. Davlat qoidalarga amal qilinishi va oxir oqibatda oddiy iste'molchi sifatli, zamonaviy xizmat yoki mahsulot olishi ta'minlanadi. [7]

Demak, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi uchun davlat hamma uchun teng sharoit yaratib berishi, iloji boricha bozor qoidalari, qonunlar, shartnomalar shaffof bo'lishi, qonunlar bozor talabidan kelib chiqqan holda o'yin ishtirokchilari uchun erkinlik berishi zarur. Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga [8] allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo‘lmaydi. [9]

Yangi iqtisodiyot nima?



Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi. [10] Kam o‘rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti

ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kampaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. [11] Iste'molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. [12]

Bu vaqtingiz tig'iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo'natishdan ko'ra kengroq imkoniyatlar bo'lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi. [13]

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. [14]. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya'ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o'tishga asoslanadi. [15]

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o'rinbosari Olimjon Umarov ta'kidlashicha, raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. [16] Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma'lumotlar bo'ladi. [17]

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o'sish, faoliyat shaffofligini ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi. [18]

Raqamli iqtisodiyot hozirgi mavjud sohalarning yarmidan ko'prog'ida beqiyos o'zgarishlar keltirib chiqarishi ta'kidlanmoqda. [19] Jumladan, Jahon banki ekspertlari fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar [20] yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4-1,4 foizga oshirish imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo'lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish deganidir. [21] Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- ❖ elektron hujjat almashinuvi;
- ❖ buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ❖ ma'lumotlar elektron bazalari;
- ❖ CRM (mijozlar bilan o'zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- ❖ korporativ tarmoqlar.
- ❖ To'lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo'lkira vaboshqa resurslar tejaladi).
- ❖ Tovarlar va xizmatlar haqida ko'proq va tezroq ma'lumot olinadi.
- ❖ Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.

❖ Fidbek (iste'molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.

❖ Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Xulosa qilib aytganda, Raqamli atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. [22]

Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa [23], raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot –ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

Shuningdek, davlat innovatsion va raqamli ekotizimni qo'llab-quvvatlash sohasida raqamli ta'limning zamonaviy metodlarini qo'llab-quvvatlashi, innovatsion xizmatlarni samarali tartibga solish [24] normalarini ishlab chiqishi, yangi bozorlarni o'zlashtirishda ko'maklashishi hamda texnologik jarayonlarning chuqurlashuvida yuzaga chiqadigan risklarni pasaytirish choralarini ko'rishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.
2. Kelly K. New Rules for the New Economy: 10 radical strategies for a connected world K. Kelly. – New York: Viking, 1998.
3. Karomatovna M. J. WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS //Journal of Advanced Scientific Research (ISSN: 0976-9595). – 2023. – T. 3. – №. 2. View of WAYS TO INCREASE THE INVESTMENT POTENTIAL OF THE REGION IN MODERN CONDITIONS (sciencesage.info)
4. Musayeva J. K. O 'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA AKTIVLARNI BOSHQARISHNING O 'RNI VA ROLI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – T. 3. – №. 4. – C. 554-564.
5. Karomatovna M. J. IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //British View. – 2023. – T. 8. – №. 5. View of IMPACT OF ENTERPRISE ASSET MANAGEMENT ON THE PROCESSES OF GLOBALIZATION IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN | British View
6. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 618-628. https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615 **DOI:** https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7

7. Musayeva J.K. O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda korxona aktivlarini boshqarish, globallashtirish va integratsiya jarayonlarining ta'siri. СОЛИҚ ВА ҲАЁТ ЭЛЕКТРОН ИЛМИЙ ОММАБОП ЖУРНАЛ, II СОН. 2023, 13-19-bet

8. Mukhsinov B., Yuldasheva S. Jamila Musaeva International journal of advanced science and technology vol. 29, no. 5, (2020) //issn. – 2005. – Т. 4238. – С. 1922-1926.

9. Musaeva J.K. Evaluation of the fixed capital of enterprises and the main ways of their effective use. "ЛОГИСТИКА ВА ИҚТИСОДИЁТ" илмий электрон журнали. 2022 ЙИЛ 2 СОН. 70-77 bet

10. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.

11. Мусаева Ж. К. ОЦЕНКА ОСНОВНОГО КАПИТАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ И ОСНОВНЫЕ ПУТИ ИХ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ //Журнал Инновации в Экономике. – 2022. – Т. 5. – №. 3.

12. Karomatovna M. J. Efficiency of introducing innovative approaches in higher education in uzbekistan //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 1266-1275.

13. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.

14. Мусаева Ж. К. РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА ТАЪЛИМДА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ //Архив научных исследований. – 2022. – Т. 2. – №. 1.

15. Мусаева Ж. К. РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 288.

16. Мусаева Ж. К. Роль цифровой трансформации в развитии экономики Узбекистана. – 2021.

17. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. Информационная безопасность–важное условие цифровой экономики. – 2021.

18. Мусаева Ж. К. Тенденции развития цифровой экономики и образования в Узбекистане //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 246-250.

19. Мусаева Ж. К., Шарипова М. М. INFORMATION SECURITY IS AN IMPORTANT CONDITION FOR THE DIGITAL ECONOMY //Тенденции экономического развития в XXI веке. – 2021. – С. 323-326.

20. Khalilova, M. N., and Pulotov Sh Sh. "Actuality of Public Finance Management System in The Republic of Uzbekistan: Main Directions, Stages, Prospects for Improvement." *European Journal of Economics, Finance and Business Development* 1.3 (2023): 1-3.

21. Артикова Д. М., Пулатов Ш. Ш. ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ СТРАТЕГИИ «ЦИФРОВОЙ УЗБЕКИСТАН-2030» //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 347-350.

22. Пулатов Ш. Ш. СОПОСТАВЛЕНИЯ КОНСОЛИДИРОВАННОГО ОТЧЕТА О СОВОКУПНОМ ДОХОДЕ И ПОРЯДОК СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЕГО В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН //Современные проблемы социально-экономических систем в условиях глобализации. – 2021. – С. 189-191.

23. Shavkatovich P. S., Bakhodirovna N. Z. INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATION ACTIVITY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DIGITAL ECONOMY //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 22. – С. 118-121.

24. Pulatov S. S. ADVANTAGES AND FEATURES OF INTRODUCING INTERNATIONALSTANDARDS OF FINANCIAL REPORTING IN UZBEKISTAN //ББК 65.0501 С 56. – 2023. – С. 481.